#Fizika_forimi-2024

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti, Samarqand davlat universiteti, Muxandislik fizikasi instituti hamkorlikda shu yilning 23-25-aprel kunlari Samarqand shahrida “FIZIKA - 2024” Uchinchi Xalqaro forumini o‘tkazadi.

O‘zbekiston olimlari va mutaxassislarining fizikaning turli sohalaridagi ilmiy ishlari va ularning yuqori saviyasi chet el olimlarining e’tiborini jalb etib, qiziqishi ortib borayotganligining yaqqol misolini tashkil etilayotgan ushbu forumda ko‘rish mumkin. Forumda dunyoning 8 mamlakatidan 154 nafar olimlar qatnashadi. Mehmonlar AQSH, Ozarbayjon, Ruminiya, Rossiya, Belorusiya, Qozog‘iston mamlakatlaridan tashrif buyurishadi. Forumda Toshkent, Samarqand, Andijon, Buxoro, Jizzax, Namangan, Qarshi va Nukus ilmiy tekshirish institutlari va OTM vakillari, olimlar ishtirok etadilar.

Manzil: Forumning ochilishi 23-aprel kuni soat 9:00 da Samarqand davlat universiteti majlislar zalida boshlanadi.
Samarqand davlat universiteti, Universitet xiyoboni, 15-uy, Samarqand, 100214.f